



QO'NG'IROTLAR SULOLASI AYRIM VAKILLARI FAOLIYATI TARIXIGA CHIZGILAR

Xatambekov Laziz Farhod o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xiva xonligining Qo'ng'irotlar sulolasi davridagi qisqacha siyosiy tarixi, ayrim hukmdorlarning davrida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot bilan bog'liq voqealar bayon qilingan.

Kalit so'zlar. Xiva xonligi, Qo'ng'irotlar sulolasi, inoqlik lavozimi, Muhammad Amin inoq, Eltuzarxon, Muhammad Rahimxon, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, elchilik aloqalari, bunyodkorlik ishlari.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin tarixni haqqoniy yoritish imkoniga ega bo'ldik hamda xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlarini tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu esa, tarixchilardan tarixiy voqealarni nihoyatda sinchiklab o'rganishni, manbalarga asoslangan holda uni haqqoniy yoritish mas'uliyatini oshirdi. Shu bilan sho'rolar davrida buzib ko'rsatilgan yoki haqiqatni yozishga yo'l berilmagan ba'zi tarixiy voqealar to'g'risida ochiq fikr aytish, mulohaza yuritish imkonini berdi. Hozirgi davr sharoitida Xiva xonligining Qo'ng'irotlar sulolasi davri tarixini yoritish, turli davrlarda amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari asosida davlatchilik muammosining o'rganilishiga haqqoniy baho berish muhim vazifalardan biriga aylandi.

XIX asr boshida ushbu sulola vakillari hokimiyat tepasiga kelgandan keyin jamiyatda nisbatan barqarorlik va osoyishtalik jarayoni xonlikning taraqqiy qilishiga asos bo'ldi. Shu tufayli bu davr tarixi Shayboniylar (Arabshohiylar) davriga nisbatan keng o'rganilgan. Xiva xonligining Qo'ng'irotlar sulolasi davri tarixini o'rganishning dolzarbligi shu bilan belgilanadiki, bunday tadqiqot vatan olimlari tomonidan muammoni o'rganishning manbalarini aniqlash, sovet va xorij tarixchilari tomonidan uni o'rganish bosqichlarini tavsiflash, Xiva xonligini o'rganishning dolzarb yo'nalishlarini ta'riflashga imkon beradi hamda muammoni kompleks ravishda tadqiq etishga xizmat qiladi.

Xiva xonligi siyosiy maydonda XVIII asrning 60-yillaridan boshlab qo'ng'irotlar urug'ining rahnamosi Muhammad Amin inoqning nufuzi ortib borgan va mahalliy zodagonlar, din peshvolari madadiga tayangan Muhammad Amin mamlakatni



birlashtirish borasida ko‘p sa‘y-harakatlarni amalga oshirdi. Inoqlar mamlakatda hokimiyatni mustahkamlash va nisbatan siyosiy osoyishtalik vaziyatini yaratishga harakat qilgan. Muhammad Amin inoq 1790 yil 61 yoshda vafot etgach, uning o‘g‘li Avazbey inoq (1790-1804) inoqlik lavozimida mamlakatni boshqarib, otasining kelib chiqishi chingiziylarga borib taqaluvchi soxta xonlarni taxtga o‘tqazish siyosatini davom ettirgan. Amalda esa davlat inoq va xonlik boshqaruv tizimidagi nufuzli lavozimli kishilardan tuzilgan maxsus kengash orqali boshqarilgan[Xudoyberganov K. 100 b.].

Davlat boshqaruvidagi bunday holatga XIX asrning boshlariga kelib barham berildi. Avaz inoqning o‘g‘li Eltuzar (1804-1806) hukmronligi davrida chetdan xon chaqirish to‘xtatildi. 1804 yili Eltuzarxon xon rutbasini olishi bilan Qo‘ng‘irotlar sulolasining rasmiy boshqaruviga asos soldi[www.wikipedia.uz. internet sayti].. 1806-yil Eltuzarxon vafot etgach, o‘rniga ukasi Muhammad Rahim I (1806- 1825) o‘tirdi. U Xivani siyosiy jihatdan birlashtirishga kirishdi. Uning davrida turkmanlarning turli qabilalari birin-ketin markaziy hokimiyatga bo‘ysundirildi.

Eltuzarxon davrida Xiva xonligiga bo‘ysunishni istamay Gurgon va Atrek hududlariga ko‘chib ketgan turkman qabilalari Xorazmga qaytib kela boshladi. Mamlakatning iqtisodiy hayoti rivojlanib, turli hunarmandchilik sohalari jonlanib, ichki, tashqi savdo faol tus olgan. Qo‘ng‘irot sulolasiga mansub Xiva xoni Muhammad Rahimxon I haqida o‘sha davrda Xivaga kelgan rus zobiti N. Muravyov shunday yozadi: “Muhammad Rahim baland bo‘yli, sog‘lom va baquvvat gavda tuzilishiga ega bo‘lib, hozir ellik yoshlarda...Yuz tuzilishi cho‘zinchoq, ko‘zlari kichik, lekin o‘tday chaqnaydi, qarashlari ziyrak, soqoli kichik va sarg‘ish”[Matkarimova S. M. 37-38 b.]. Bunday ma‘lumotlarni N.Veselovskiy asarida ham uchratish mumkin.

Ollaquli ibn Muhammad Rahimxon (1795–1842) otasining vafotidan keyin (1825) taxtga chiqib, u boshlagan xayrli ishlarni davom qildirdi, ota meros mamlakat sarhadlarini kengaytirib mustahkamlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Ollaqulixoniga otasidan boy xazina va qo‘shni davlatlarga ta’siri katta bo‘lgan mamlakat meros qoldi. Bularni saqlab qolish uchun Ollaqulixon ichki va tashqi imkoniyatlardan kelib chiqib tarix sahifasida me‘mor, tajribali hukmdor va mohir sarkarda sifatida nom qoldirdi.

Xiva xonlari Muhammad Rahimxon, Ollaqulixon zamonasida bo‘z, partov yerlarni o‘zlashtirishga, yangi irrigatsiya inshootlarini qurilishiga juda katta e‘tibor berildi. Eski irrigatsiya tarmoqlari qayta tiklandi va ta‘mirlandi. Said Muhammad Rahimxon Soniy o‘zining 47 yillik hukmronligi davrida elyurt farovonligi, tinchligi



va osoyishtaligi uchun kurashdi. Mamlakatda ziroat, savdo-tijorat ishlarini yanada rivojlantirish, irrigatsiya shahobchalarini tartibga solish va ma'muriy inshootlar qurish haqida g'amxo'rlik qildi [Matkarimova S. M. 38-40 b.]. Uning podsholik davri Xorazmda fan va madaniyatning chinakam yuksalish davri bo'ldi. Ma'muriy boshqaruv sohasida u dastavval markaziy davlat apparatini mustahkamlashdan boshladi. O'z atrofga bilimli, tajribali, insofli, diyonatli amaldorlarni to'pladi va ularning xizmatlariga qarab martabalarini muntazam oshirib bordi. Saroy ayonlariga, viloyat hokimlariga va qozilarga davlat xazinasidan ish haqi belgiladi. Devoni Oliy (Oliy Kengash) ning ro'li va mas'uliyatini oshirdi. Mashhur olimlar, tarixchi va shoirlar xonning ustozlari va maslahatchilari edilar[www.wikipedia.uz. internet sayti].

Xonning bevosita tashabbusi va farmoni bilan Xivada 30 dan ortiq chiroyli koshinkor ma'muriy, diniy va fuqarolik imoratlari bunyod etildi. Xonning o'zi Ko'hna Ark oldida peshtoqini ark darvozasiga qaratib 76 hujrali katta madrasa qurdirdi. Pahlavon Mahmud maqbarasida yozgi masjid va ayvon qurdirdi. Xonning maslahati bilan Matmurod va Matniyoz devonbegilar, Yusuf va Qadam yasovulboshilar, Matpanaboy, qozikalon Salim Oxun va boshqalar madrasa qurdilar. Xonning bosh vaziri Islomxo'ja va Polvon qorilar minorali madrasa bino etdilar[Matniyozov M., Ollamov Y. 52-53 b.].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Qo'ng'irotlar sulolasi davrida Xiva xonligining ma'muriy tuzulishi va davlat boshqaruvini tashkil etish borasida juda muhim ishlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, davlatni boshqarishni o'ziga xos holda ancha takomillashgan tizimi, usuli va tartiblari joriy qilinganini ko'rish mumkin. Bu davrda xonlar mamlakatda to'la hukmronlik o'rnatdilar, o'zaro nizolarga chek qo'ydilar, tashqi hujumlarni bartaraf etib, aksincha o'zlari qo'shni hududlarga istilochilik yurishlari qildilar. XIX asrning birinchi yarmi Xorazm amaliy san'atining eng rivoj topgan davri sifatida tarixga kirdi, bu davrda barcha san'at turlari yuksak cho'qqiga ko'tarildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Matkarimova S. M. Xiva xonligining Qo'ng'irotlar sulolasi davri tarixshunosligi. Toshkent. 2016.
2. Matniyozov M., Ollamov Y. Xorazm davlatchiligi tarixi. Urganch. 2008.
3. Xudoyberganov K. Xiva xonlari tarixidan. Urganch-Xorazm. 2008.
4. www.wikipedia.uz. internet sayti